

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA OMMAVIY
AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI**

To'raqulova Malohat Bahodir qizi

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Xolboyeva Maftuna

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10429074>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlash jarayonida ularning ruhiy va aqliy rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining ta'siri, shuningdek hozirgi kunda televideniya orqali namoyish etilayotgan ko'pgina multfilmlarning qay darajada ahamiyatli ekanligi va bu haqida ota-onalarda ko'nikma ham zarurligi borasida xulosa va tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot vositalari (kompyuter, telefon, televizor...), axborot, kommunikatsiya, innovatsiya, texnologiya, oqim, virtual, informatsiya, glaballashuv.

**THE IMPACT OF MASS MEDIA ON THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL
CHILDREN**

Abstract. In this article, the influence of mass media on the mental and intellectual development of preschool children in the process of preparing them for general secondary education, as well as the importance of many cartoons currently shown on television, and the skills of parents about this Conclusions and recommendations are given regarding the necessity

Keywords: Mass media (computer, telephone, television...), information, communication, innovation, technology, flow, virtual, information, globalization.

**ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние средств массовой информации на умственное и умственное развитие детей дошкольного возраста в процессе их подготовки к общему среднему образованию, а также значение многих мультфильмов, показываемых в настоящее время по телевидению, и что думают по этому поводу родители. Сделаны выводы и рекомендации относительно необходимости «никмы»

Ключевые слова: средства массовой информации (компьютер, телефон, телевидение...), информация, коммуникация, инновации, технологии, поток, виртуальный, информация, глобализация.

Ommaviy axborot vositalarining jadallik bilan rivojlanishi ta'sirida o'sayotgan bolalarning ham ota-onalarning ham qolaversa ta'lim va tarbiya berayotgan tarbiyachilarning ham oldida eng muhim masala turibdi. Ya'ni "Bizning bolalarimiz qanday multfilmlar tomosha qilayapti?", "Maktabgacha yoshdagi bolalarimizni nega virtual o'yinlar qiziqtirayapti?". Shu kabi savollarning javobi vaqtida o'z yechimini topmasa, keyinchalik: "Farzandim nima uchun injiq, beparvo?", "Farzandimni tushuna olmayapman!", "Farzandimga nim a ta'sir qilyapti ekan?", "Bu masalani qanday yechsam bo'ladi?" degan savollar va ikkilanishlar ro'y berishi mumkin. "Bolalarni ularning sog'lig'i va axloqiga zarar yetkazuvchi ma'lumotlardan himoya qilish" nomli tadqiqotning xorijiy amaliyotni o'rganishda quyidagi natijalarni ko'rish mumkin:

Amerikalik psixologlarning ta'kidlashicha, teleko'rsatuv va multfilmlarni haddan ortiq ko'rish bolalarda hadik, hayajon va ko'rish qobiliyatining ham pasayishini yuzaga keltiradi. Agar ota-onalar o'zlari bilan birgalikda 9 oylik bolasi bilan shu tarzda televizor tomosha qilsa, bola 20% rivojlanishdan orqada qoladi. 3 yoshga yetganda esa 1 yilga, 12 yoshga yetganda esa 100 mingta zo'ravonliklar va qotilliklarning guvohiga aylanib qolar ekan. Shuningdek, ota-onalarning beparvoligi va uquvsizligi natijasida bolalarning ong jihatdan zaiflashuvi, rivojlanishdan orqada qolayotganligini sezishimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyavev bu tizimni chuqur tahlil qilib, shu paytgacha ahamiyat qaratilmagan eng kichik jihatlariga ham e'tibor qaratdi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlari va o'quv tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish bilan birga ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishi, eng avvalo, maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanishi dolzarb masala ekanligicha qolayotganligi aniqlandi.

Shuningdek, faqat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida emas, o'zimizning ham atrofimizga qaraydigan bo'lsak, insonlar hayotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalari ta'sirida ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kuchayib borayotganligi hammamizga ma'lum. Ikkinchi tomondan esa bolalarning yengillikka o'rganib qolishlari ya'ni bilim olishda, ovqatlanishda, etik va estetik jihatdan, fikrlash va kreativ qobiliyatlarining ham yuzakilashishini, beparvolikni ko'rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ommaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, XXI asr axborot asrining jadal rivojlanishi bolalarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirish mumkin. Televideniya orqali namoyish etilayotgan videofilm va videoroliklardan ranglarning uyg'unlikdagi tasvirlarini, harakatlarini va tovush orqali namoyish etilishi bolalarning kreativ qobiliyatlarini kengroq ochishga va yetkaza berish qobiliyatiga yordam beradi. Kompyuter

bir vaqtning o'zida matn, garfik tasvir, yozuv, ovoz, nutq va turli ma'lumotlarni tezlik bilan takrorlay oladigan ommaviy axborot vositasi hisoblanadi. Bu vosita tarbiyachilar uchun tarbiyalanuvchilar bilan mashg'ulotlar davomida yangi tasvirlar va turli geometrik shakllardan foydalangan holda qiziqarli va kulguli videorolik tayyorlash imkonini beradi. Bularning asosida maktabgacha ta'lim tizmini sifat jihatdan yuksaltirishga va bolalarning kreativ rivojlanishi uchun ommaviy axborot vositalarining ham o'rni borligidir.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli tajribalar ham o'tkazilmoqda. Kanadalik psixolog A. Bandura o'zining tajribasida ommaviy axborot vositalari orqali 3-7 yoshli bolalar ishtirokida olib borgan. Ularga katta odamlar tomonidan qo'g'irchoqqa negativ munosabati ifoda etilgan qisqa metrajli multfilm ko'rsatilgan. Multfilm ko'rib bo'lgach, bolalarga 10-20 minut o'ynash imkoniyati berilgan. Eng e'tiborli tomoni shundaki, bolalarning aksariyat qismi aktyor tomonidan ko'rsatilgan film lavhasidagi agressiyani takrorlashga harakat qilgani kuzatildi. Chunki u ko'rgan multfilmdagi qahramon obraziga o'zini qo'yib idrok etadi. O'zini multfilm qahramoni bilan taqqoslash va andoza olish orqali yaxshi yoki yomon illatlarni o'ziga singdiradi. Uning fikriga ko'ra, g'arb kino mahsulotlari tufayli juda ko'p bolalar urushqoq, qahri qattiq, qaysar va johil bo'layotganligi, normal insoniy hislardan ancha yiroq bo'lib qolishlari ko'rinar ekan.

Bunday hayotiy jarayonlar, tajribalar o'tkazish juda havfli hisoblanadi. Bu bolaning ong jihatdan zararlanishi- bu o'liklik bilan tengdir. Tajriba tufayli kamida 10-15 kishi aqil, ong va mafkuraviy, ma'naviy jihatdan jarohat olishi mumkin.


Bugungi kunda televideniya orqali namoyish etilayotgan multfilmlarning ham ijobiy ham salbiy jihatlarini ko'zdan kechirishimiz mumkin. Ijobiy taraflari: ranglar uyg'unligini, o'zaro mutannosib harakatlanayotgan tasvirlar bolalarning kreativ qobiliyatlarining rivojlanishi, o'zgacha yondashuvlarni bundan tashqari "yolg'onchi bolaning afsuslanishi", "o'g'irlikning alomatlari", "qaysar bolaning ahvoli" singari videofilmlar yoki multfilmlar oraqali o'rnak olishlarini kuzatishimiz mumkin. Ilk yoshdan boshlab bolalarda gapirish madaniyati, so'zlarni vaziyatga qarab to'g'ri qo'llash, etik, estetik va mehnat tarbiyasida ham ta'siri kuzatiladi. Shunday multfilmlar, videofilmlar borki, bolalarning erkin fikrlashi, o'ziga ishonchi, lug'at boyligining oshishi va yangicha yondashuvlari kuzatiladi. Besh qo'l barobar bo'lmaganidek, ommaviy axborot vositalarining salviy ta'siri ham yo'q emas, asosan hozirda ota-onalardan o'rganishi kerak bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini, o'z xohishlarini bajarayotgan ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Bolaning asosiy kuni oila muhitida kechadi. Shu sababdan ota-onalar mas'uliyatli bo'lishi talab etiladi. Ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan ya'ni oilamizda bolalarning

yig'lamasligi, ovunib turishi maqsadida, uhlatish jarayonlarida ham elektron "alla" lar mobil telefonlar orqali qo'yib berilayotganligini ko'rmoqdamiz.

Yuqorida keltirilgan xorij tajribalari va turli ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, biz ham globallashuv jarayonida farzandimiz tarbiyasiga ta'sir etuvchi innovatsion oqimlardan ogoh bo'lishimiz, bolalar uchun yaratilgan barcha narsalarni psixologik ta'sir quroli sifatida yoddan chiqarmasligimiz kerak.

REFERENCES

1. R.Yu. Mehmonov, D.K. Xusniddinova "Bolalar bog'chasida komputer savodxonligi".
2. N.N. Begmatova "Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyati".(o'quv-uslubiy qo'llanma)



MODERN SCIENCE
& RESEARCH